



**FARG'ONA VILOYATI BESHARIQ TUMANI HOKIMINING
QARORI**

№ 256

«05» 04 2021-yil

Beshariq tumani S.Marasulov MMTP hududidagi tuman hokimligi zaxirasida bo'lgan yer maydonida paxta-g'allachilik yo'nalishida fermer xo'jaligi tashkil etish uchun tanlovda g'olib bo'lgan fuqaro Nomurodov Eldor Hakimjonovichga uzoq muddatli ijarada foydalanish uchun yer maydonlari ajratib berish to'g'risida.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2005-yil 19-noyabrda 1523-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Fermer xo'jaligini yuritish uchun yer maydonlarini berishda tanlov g'olibini aniqlash tartibi to'g'risida"gi Nizomga, tuman hokimligi huzuridagi fermer xo'jaliklariga yer maydonlarini (realizatsiya qilish) masalalarini ko'rib chiqish bo'yicha komissiyasining 25.03.2021- yildagi yig'ilish qarori va Xalq deputatlari Beshariq tumani Kengashining 26.03.2021-yildagi VI-XXXII/152-sonli qarorini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi va "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida" gi Qonunlarining 6-,25-moddalariga va to'plangan hujjatlarga asosan,

QAROR QILAMAN

1. Tuman hokimligi huzuridagi fermer xo'jaliklariga yer maydonlarini (realizatsiy qilish) masalalarini ko'rib chiqish bo'yicha komissiyasining 25.03.2021-yildagi yig'ilish bayoni va Xalq deputatlari Beshariq tumani Kengashining 26.03.2021-yildagi VI-XXXII/152-sonli qarori asos uchun qabul qilinsin.

2. **S.Marasulov** MMTP hududidagi 70, 73, 76, 77, 81, 82, 85, 87, 87a, 90, 91, 92, 93, 94, 95, 96, 98, -konturlardagi jami; 78.9 gektar shundan; 77.2 gektar ekin yeri, 0.7 gektar ariq va zovurlar, 0.1 gektar yo'llar, va 0.9 gektar boshqa yer maydonlari hamda Agrotexservis MMTP hududidagi 257, 274, 275, 290, 291, 292q, 305q-konturlardagi jami; 22.3 gektar shundan; 17,2 gektar yaylovlar, 2.5 gektar ariq va zovurlar, 2.6 gektar boshqa yer maydonlari, umumiy jami; 101.2 gektar shundan; 77.2 gektar ekin yeri, 17,2 gektar yaylovlar, 3.2 gektar ariq va zovurlar, 0.1 gektar yo'llar, va 4.1 gektar boshqa yer maydonlari paxta-g'allachilik yo'nalishida fermer xo'jaligi tashkil etish uchun tanlovda g'olib bo'lgan fuqaro **Nomurodov Eldor Hakimjonovichga** 48 yil muddatga ijarada foydalanish uchun ajratib berilsin hamda yer maydonini uzoq muddatli ijaraga olish

shartnomasini rasmiylashtirish vazifasi tuman Kadastr Agentligi Beshariq tumani bo'limi boshlig'i (M.Madaminovga) ga yuklatilsin.

3. Beshariq tumani "Davlat xizmatlari markazi" boshlig'i (M.Obidov) ga ushbu fermer xo'jaligi tashkil etish uchun yer maydoni ajratib berilishi munosabati bilan o'rnatilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman Statistika bo'limi (O.Komilov), tuman Davlat Soliq inspeksiyasi (A.Turanov)larga:

- yagona davlat reestriga kiritish hamda soliqlar to'lanishi va hisobotlarni topshirilishini nazorat qilish vazifalari yuklatilsin.

5. Tuman tijorat banklari rahbarlariga yangi tashkil etilayotgan fermer xo'jaligiga bankda hisob raqam ochish topshirilsin.

6. Tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'iga, fuqaro E.Nomurodovga, fermer xo'jaligi tashkil etish uchun ajratib berilgan yer maydonlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 24 avgustdagi 501-son qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Tugatilayotgan yoki maqbullashtirilayotgan fermer xo'jaligi yoki qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi boshqa subyektlarga ajratilgan yer maydonida sarflangan xarajatlar qiymatini hisoblash va qoplash tartibi to'g'risida"gi Nizom talablariga muvofiq qishloq xo'jaligi xarajatlarini tegishli tartibda hisoblash va o'tkazish topshirilsin.

7. Mazkur qarorni ijrosini nazorat qilish tuman hokimining Qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari S.Artiqov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



R. Jo'rayev